<i>Umrbekova Maftuna Ulug'bek qizi</i>	
Antroposentrik yondashuv asosida o'quvchilarda insonparvarlik fazilatlarini shakllantirish yo'llari	796
<i>Xamidova Nigora Ibrohimovna</i>	
Обучение говорению на русском языке абитуриентов с помощью настольных игр	800
<i>Абдулаходова Шохида</i>	
Особенности педагогической деятельности и их виды	803
<i>Мавжудова Ш. С., Мирходжаева Д.</i>	
Развитие критического мышления младших школьников на уроках читательской грамотности	808
<i>Мухаммадиева Марифат Мурод кизи</i>	
Искусство подбора слов: стилистические и семантические возможности перифраз	811
<i>Юлдашева Дилноза Бекмуродовна</i>	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida talabalarda refleksiv tafakkurni rivojlantirishning vazifalari va pedagogik imkoniyatlari	815
<i>Abdullayeva Ziroatxon Qurbonovna</i>	
The Human Factor in AI-Mediated English Instruction: Balancing Technology and Pedagogical Expertise	818
<i>Ikramova Aziza Aminovna</i>	
Madaniyat tushunchasi va uni xorijiy til o'qitishda o'rganish zarurati	823
<i>Ma'murova Farangiz Ne'matovna</i>	
O'quvchilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirish: zamonaviy pedagogik yondashuvlar va ularning samaradorligi	827
<i>Ostonova Ma'mura Ulug'bek qizi</i>	
Ko'zi ojiz boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentsiyasini o'rganishning nazariy asoslari	830
<i>Qarshiboyev Asliddin</i>	
Farzand tarbiyasida ota-onaning pedagogik-psixologik malakalari	834
<i>Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi</i>	
Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llashning tashkiliy-ilmiy asoslari	839
<i>Xolmatov Pardaboy Qoraboevich</i>	
Методология типологического и сравнительного анализа детского фольклора	844
<i>Азмиева Э. Э.</i>	
Maktabgacha ta'lim elementar matematik tushunchalarni rivojlantirish zarurati	851
<i>Xoldarova F. M.</i>	
Multimadaniy muhitda pedagoglarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlari	854
<i>Gulyamova Nafisa Burikulovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyat tushunchalarini shakllantirishda oila va mahallaning roli	858
<i>Rizayeva Xusniya Ubayevna</i>	
Raqamli pedagogika: zamonaviy ta'limda innovatsion texnologiyalar roli	861
<i>Maxmudova Dilnoza Xaytmirzaevna</i>	
Badiiy adabiyot – maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik dunyoqarashni shakllantiruvchi omil sifatida ...	865
<i>Xujamberdiyeva Shahnoza Kupaysinovna</i>	
Yangi O'zbekistonda inklyuziv ta'lim islohatlar bosqichida	868
<i>Boyqulov Azamat Maxram o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor o'rinbosarlarining menejerlik ko'nikmalarini rivojlantirishning xorijiy tajribasi va uni mahalliy sharoitda qo'llash imkoniyatlari	871
<i>Maxamadaliyeva Ezoza Rustamxo'ja qizi</i>	
Oliy badiy pedagogik ta'lim muassasasida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini maktab o'quvchilarida illyustrativ rasm ishlashga oid kompetensiyalarini shakllantirishga tayyorlashning mazmuni	875
<i>Sobirov Sarvar Tursunmurotovich</i>	
Kasb-hunar maktablarida fizika fanini steam integratsiyasi asosida o'qitishning nazariy-didaktik asoslari ..	878
<i>Matamoxunov Yorkin Abduraimjanovich, Soliyeva Mubinabonu Zokirjon qizi</i>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida olib boriladigan pedagogik faoliyat imkoniyatlari	885
<i>Abidova Nilufar Zakirovna</i>	

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni kasbga yo'naltirish: pedagogik yondashuvlar va amaliy tajribalar.....	888
Ahmedova Lola Abdivasi qizi	
Aqli zaif o'quvchilarni ijtimoiy-maishiy kompetensiyasini shakllantirishning asosiy komponentlari va samarali omillari.....	893
Anvarova Dilfuza Akramjanovna	
O'quv topshiriqlari orqali 6-sinf o'quvchilarining pragmatik kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy-metodologik asoslari.....	896
Ashirboyeva Nafisa Aminboyevna	
Talabalarda ijtimoiy faollik ko'nikmalarini takomillashtirish va uning amaliy ahamiyati.....	900
Ergasheva Maftunaxon Avazbekovna	
Talabalarda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida reflektiv tafakkurni rivojlantirish	904
Ergasheva Nigora Dilshodjon qizi	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kasbga qiziqishlarini rivojlantirishning pedagogik va psixologik xususiyatlari.....	907
Isabekova Dilafruz Shermirzayevna, Gazibekova Gulavza Ergashovna	
Innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llashning nazariy asoslari.....	913
Murodov Akmal Djayliboyevich	
Maktabgacha ta'lim yoshdagi intellektida nuqsoni bo'lgan bolalarning estetik muomala madaniyatini tarbiyalash.....	917
Po'latova Parida	
Fizika fanini o'qitishda raqamli ta'lim vositalarining samaradorligi.....	920
Saparova Gulmira Baxtiyorovna	
Rus tilini o'qitishda an'anaviy va audiovizual usullarning qiyosiy tahlili	923
Umarov Aziz Avazovich	
An Analysis of The Importance of Teaching English at the Primary Level.....	927
Vasila Almetova Sunnatullayevna	
Muammoli ta'lim texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llash.....	931
Adizova Nodira Baxtiyorovna	
"Informatika va axborot texnologiyalari" fanidan iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashning ilmiy-pedagogik yondashuvlari	936
Akmaljon Xushvaqto'v	
Iqtidorli talabalar bilan ishlash pedagogik muammolari	939
Delov To'liqin Erkinovich	
Rinolaliya nutq nuqsonining anatomik jihatdan kelib chiqishi	945
Kabirova Zarnigor Raxmonjon qizi	
Methodology for Teaching Modal Verbs in English Lessons	949
Kholnazarova Vazira Bozor qizi	
The Use of Mobile Apps to Build Vocabulary Proficiency	953
Kosimov Sunnat Ravshan ugli	
Disability Terminology in Uzbek: Etymological Evolution and Future Trends	957
Kuchkarova Xurshida	
Bo'lajak muhandislarni grafik dasturlar yordamida loyihaviy-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish (muhandislik va kompyuter grafikasi fani misolida)	964
Madaminov Javlonbek Zafarjonovich	
Ijodiy tafakkurni rivojlantirishda interaktiv darsliklarning pedagogik imkoniyatlari	968
Mirzaakbarov Dilshod Dovlatboyevich	
Sog'lom turmush tarzi – jismoniy madaniyati sohibi sifatida jismoniy mashqlar komplekslarini tuzish va bajarishda amal qilinadigan qoidalar	971
Musayev Zarifjon Tursunaliyevich	
Bo'lajak defektologlarning pedagogik mas'uliyatini oshirish	974
Nodira Mirboboyeva	
Bo'lajak o'qituvchilarni kreativ yondashuv asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish modeli	977
Odamboyeva Mehribon Norimon qizi	
O'quvchini muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirishda kitobxonlikning o'rni.....	981
Qurbanova O'g'iloy Axrorovna	



Sharq mutafakkirlari asarlari vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirishning afzalliklari	985
Rejabboyeva Muxarram Odiljon qizi	
Pedagogik ta'lim jarayonida raqamli nazorat tizimlaridan foydalanish samaradorligi va rivojlantirish yo'nalishlari	989
Samijonov Azizbek Ismoiljon o'g'li	
Dizatriya nutq kamchiligini bartaraf etishda muassasa, logoped va oilaning hamkorligi	992
Shermatova Yukut Sabirovna	
Kulolchilik va an'anaviy o'yinchoqlarni o'quvchilar kasb tanlash jarayonida qo'llash metodikasi	995
Soliyeva Diyora Bobur qizi	
O'zbekistonda inkluziv ta'lim va uning me'yoriy-huquqiy asoslari	998
Temirov Nabijon Soliyevich, Esonova Klaraxon Mahmamin qizi	
Oila va xotin-qizlar tizimida kollaborativ madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari	1001
Tojibayeva Nazokatxon	
Sun'iy intellekt yordamida talaffuz va tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	1005
Tojiyev Olimjon Haqberdi o'g'li	
Boshlang'ich ta'lim tizimi muammo va istiqbollari sotsiologik tadqiqotlar asosida	1008
Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi	
Oliy ta'lim talabalarida integrativ yondashuv asosida tanqidiy fikrlash kompetentligini rivojlantirish metodikasi	1011
Xalimova Mashraboy Vaxidovna, Botirova Mavluda To'xtasin qizi	
5–6 yoshli bolalarda ekologik madaniyatni rivojlantirishda o'yinli texnologiyalarini qo'llashning pedagogik shart-sharoitlari	1015
Xolboyeva Gulnora Ulashovna, Dolliyeva Xayrigul Namoz qizi	
Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikning namoyon bo'lishi psixologik fenomen sifatida	1018
Xoshimova Y. I.	
Inklyuziv ta'lim sharoitida pedagogik va psixologik yondashuvlarning mazmuni	1023
Xudoyqulova Aziza Anvar qizi	
Pedagogik ta'limda mediakompetentlikni shakllantirish jarayonida raqamli resurslardan foydalanish samaradorligi	1026
Yuldashov Sherzod Sattorovich	
Особенности развития эмоционального интеллекта у дошкольников	1029
Жамолова Зарнигор Баходир кизи	
Стратегии лингвистического моделирования в обучении русскому языку и их роль в формировании идентичности студентов	1033
Рузметова Наргиза Ахмедовна, Рузметова Хилола Абдушориповна	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini matematik mushohada yuritishga o'rgatish	1038
Dehqonova Mahliyo Shuhrat qizi	
Tarbiyachi inklyuziv kompetentligi va zamonaviy ta'limda uning o'rni	1041
Haydarova Namuna	
Using Story-Based Role-Play Activities to Enhance Speaking Skills of Primary School Learners	1044
Mohigul Nizomiddinova	
Axborot va telekommunikatsion vositalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali talabalarni badiiy qadriyatlarga qiziqtirish	1049
Soliyeva Maftuna Tirkash qizi	
Ruhiy rivojlanishning susayish sabablari va klinik xarakteristikasi	1053
Xamrayeva Iroda Sayfullayevna	
Ona tili darslarida zid ma'noli so'zlarning o'quvchilar nutqini rivojlantirishdagi vazifalari	1056
Xusanova Gulruxsor To'liqin qizi	
Ta'lim tizimida neyrolingvistik dasturlash (NLD)ning ilmiy-metodologik asoslari	1059
Xolikova Dilobarxon Maxsitovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy identitet va vatanparvarlikni shakllantirish texnologiyalari	1062
Primkulova Iroda Berdimurodovna	
Informatika o'qitishda veb texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati	1067
Xatamqulova Gulsanamxon Salimjonovna	
Talabalarining ingliz tilida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda interaktiv metodlardan foydalanish	1071
Esmuratov Muzaffar Elamonovich	



Bo'lajak maxsus pedagoglarni korreksion mashg'ulotlarda logotexnik mashqlar tizimidan foydalanishga tayyorlash omillari.....	1073
Maxmudov Xurshidjon Shuxratovich	
Inklyuziv ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini antroposentrik yondashuv asosida tarbiyalash mexanizmi	1076
Oppoxo'jayev Xojixuja Azimjon o'g'li	
Nutqida muammosi mavjud bolalarning ijtimoiy adaptatsiya xususiyatlarini o'rganishning pedagogik asoslari	1081
Ne'matullayeva Mushtariy Laziz qizi	
Mutaxassislik modullarini integrativ o'qitishning mazmuni va shart-sharoitlari	1084
Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna	



OLIV TA'LIM TALABALARIDA INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA TANQIDIY FIKRLASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Xalimova Mashraboy Vaxidovna

Andijon davlat pedagogika instituti
Pedagogika va psixologiya kafedrasini mudiri, professor

Botirova Mavluda To'xtasin qizi

Andijon davlat pedagogika instituti
Matematika va informatika kafedrasini o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida integrativ yondashuv asosida talabalarda tanqidiy fikrlash kompetentligini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Integratsiya jarayonining ilmiy-nazariy mohiyati, tanqidiy fikrlashni shakllantirishda fanlararo bog'liqlikning roli hamda ularni amalga oshirishning metodik yondashuvlari yoritiladi. Tadqiqotda integrativ o'qitishning asosiy tamoyillari va talabalarda tahliliy tafakkurni rivojlantiruvchi pedagogik shart-sharoitlar asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: integrativ yondashuv, tanqidiy fikrlash, kompetentlik, oliy ta'lim, metodika, tafakkur, interfaol metodlar.

Abstract: This article analyzes the issues of developing critical thinking competence among higher education students based on an integrative approach. The scientific and theoretical essence of the integration process, the role of interdisciplinary relations in the formation of critical thinking, and methodological approaches to their implementation are explained. The study substantiates the main principles of integrative teaching and the pedagogical conditions that contribute to the development of analytical thinking in students.

Key words: integrative approach, critical thinking, competence, higher education, methodology, thinking, interactive methods.

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы развития компетентности критического мышления у студентов высших учебных заведений на основе интегративного подхода. Раскрывается научно-теоретическая сущность процесса интеграции, роль междисциплинарных связей в формировании критического мышления, а также методические подходы к их реализации. В исследовании обоснованы основные принципы интегративного обучения и педагогические условия, способствующие развитию аналитического мышления у студентов.

Ключевые слова: интегративный подход, критическое мышление, компетентность, высшее образование, методика, мышление, интерактивные методы.

KIRISH

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish har bir inson uchun juda muhim, chunki u bizga hayotda uchraydigan turli ma'lumotlar va vaziyatlarni to'g'ri tahlil qilish, mantiqan fikr yuritish va asosli xulosa chiqarish imkonini beradi. Tanqidiy fikrlashchi inson boshqalarning fikriga so'zsiz ishonmaydi, balki ularni tahlil qiladi, dalillarni solishtiradi va o'z qarorini ongli ravishda shakllantiradi. Shuning uchun ham bu ko'nikma mustaqil tafakkur va to'g'ri qaror qabul qilishning asosi hisoblanadi. Bugungi kunda ta'limning maqsadi shunchaki bilim berish emas, balki o'quvchini fikrlashga, tahlil qilishga va o'rgangan bilimni amaliyotda qo'llay olishga o'rgatishdan iborat. Tanqidiy fikrlash ana shu jarayonda eng muhim rol o'ynaydi. Chunki bu ko'nikmaga ega talaba muammoni ko'ra oladi, sababini tahlil qiladi va ijodiy yechim topishga harakat qiladi. Axborot oqimi kuchli bo'lgan hozirgi davrda esa tanqidiy fikrlash insonni chalg'ituvchi, noto'g'ri ma'lumotlardan himoya qiladi. U odamga ishonchli manbani tanlash, axborotni saralash va haqiqatni yolg'ondan ajratish imkonini beradi. Shu sababli tanqidiy fikrlash zamonaviy hayotda nafaqat o'qish, balki ish, jamiyat va kundalik qarorlarda ham zarur. Bu ko'nikma insonni har bir masalaga ongli yondashishga, fikrini asosli bayon etishga, boshqalarni eshitib, mantiqan tahlil qilib, o'z fikrini himoya qila olishga o'rgatadi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish orqali biz o'z fikriga ega, tahlilchi, mas'uliyatli va faol pedagoglarni tarbiyalaymiz. Shu bois tanqidiy fikrlash bugungi ta'limning eng muhim yo'nalishlaridan biridir.

Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy maqsadi – mustaqil fikrlaydigan, tahliliy yondasha oladigan va muammolarga ijodiy yechim topa oladigan kompetent shaxsni shakllantirishdan iborat. Oliy ta'limda bu jarayon talabalarda tanqidiy fikrlash kompetentligini rivojlantirish orqali amalga oshadi.

Tanqidiy fikrlash – bu axborotni tahlil qilish, dalillarni baholash va asosli xulosaga kelish qobiliyatidir. Bunday fikrlashni rivojlantirish uchun integrativ yondashuv – ya'ni fanlararo bog'liqlik asosida o'qitish samarali metodik yo'nalish hisoblanadi. Integratsiya talabani bilimlarini yagona tizimga keltirish, turli sohalar orasidagi mantiqiy bog'lanishlarni aniqlash va ularni amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi.

Tanqidiy fikrlash kompetentligining mohiyati: Tanqidiy fikrlash – bu shunchaki ma'lumotni eslab qolish emas, balki uni tahlil qilish, solishtirish va baholash jarayonidir. U talabani quyidagi sifatlarini shakllantiradi:

- **Tahliliy fikrlash** – mavjud dalillarni mantiqan tahlil qilish qobiliyati;
- **Baholovchi yondashuv** – fikrlar orasidan to'g'risini tanlay bilish;
- **Ijodiy qaror qabul qilish** – yangi g'oyalarni ilgari surish;
- **Refleksiv fikrlash** – o'z xulosalarini qayta ko'rib chiqish.

Bu kompetentlikni shakllantirishda o'qituvchi faoliyatining markazida talaba subyekti turadi. Demak, o'qitish jarayoni talabani fikrlashga, dalillashga, muhokama qilishga undaydigan faol metodlarga asoslanishi kerak.

Integrativ yondashuvning o'quv jarayonidagi o'rni. Integrativ yondashuv – bu o'quv fanlari, tushunchalar va metodlar o'rtasida tizimli aloqadorlik o'rnatishdir. Bunday yondashuv:

- o'quv materialini turli fanlar bilan bog'lash orqali mavzuni kengroq tahlil etish imkonini beradi;
- amaliy tafakkur va analitik fikrlashni rivojlantiradi;
- ta'lim jarayonida muammoli va interfaol metodlarni qo'llash uchun asos yaratadi.

Masalan, pedagogika fanini psixologiya, informatika yoki falsafa bilan integratsiyalash orqali talaba muammoni turli nuqtai nazardan tahlil qiladi. Bu esa uning tanqidiy fikrlash salohiyatini oshiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tanqidiy fikrlash va integrativ yondashuvga oid ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu masala so'nggi yillarda ta'lim nazariyasi va amaliyotining eng dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylangan. Ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar bu mavzuga turlicha yondashgan, ammo ularning barchasi tanqidiy fikrlashni rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri ekanligini ta'kidlashadi. John Dewey o'zining "How We Think" asarida inson tafakkuri jarayonini tahlil qilib, tanqidiy fikrlashni o'qitish jarayonining markaziy qismi sifatida ko'radi. Uning fikricha, o'quvchi yoki talaba faqat tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki o'ylovchi, izlovchi va muammoni hal etuvchi subyekt sifatida faol bo'lishi kerak. Paul va Elder esa tanqidiy fikrlashni ongli, maqsadga yo'naltirilgan fikrlash jarayoni deb ta'riflaydi va uni shakllantirish uchun o'qituvchi tomonidan to'g'ri tashkil etilgan tahliliy topshiriqlar zarurligini ta'kidlaydi.

O'zbekistonlik tadqiqotchilar orasida N. Qodirova integrativ yondashuvning o'qitishdagi o'rni haqida yozib, fanlararo bog'liqlik talabalarda tizimli va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam berishini isbotlagan. U. Karimov esa tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda interfaol metodlar – aqliy hujum, debat, fishbone, case-study kabi usullarning o'rni haqida fikr bildirgan. Shu bilan birga, zamonaviy pedagogik adabiyotlarda integrativ yondashuvning mohiyati keng talqin qilinadi. Integratsiya deganda fanlararo, nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlash tushuniladi. Bu yondashuv orqali talaba bilimni alohida bo'laklar sifatida emas, balki yagona tizimda ko'radi, bu esa tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Shuningdek, Vygotskiy va Brunerning psixologik-pedagogik qarashlarida ham integratsiya va tafakkur rivoji o'zaro bog'liq jarayon sifatida izohlanadi. Ular fikrlash jarayoni muhit va faoliyat orqali rivojlanishini ta'kidlashgan, bu esa bugungi integrativ ta'lim yondashuvining ilmiy asosini tashkil etadi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda integrativ yondashuvni qo'llash o'quv jarayonini tizimli, mantiqan bog'liq va samarali qiladi. Bu yondashuv talabani fikrlash faoliyatini kengaytiradi, uni mustaqil o'ylash, dalillash va xulosa chiqarishga o'rgatadi. Shu sababli, ilmiy manbalar tahlili asosida aytish mumkinki, integrativ yondashuv tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning eng samarali metodik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ushbu tadqiqotning metodologiyasi oliy ta'lim tizimida talabalarda tanqidiy fikrlash kompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish jarayonini ilmiy asosda o'rganish, tahlil qilish va samarali metodik yo'llarini ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqotda pedagogik tizimning tarkibiy qismlari – maqsad, mazmun, metod, vosita va natijalar o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqiladi. Ishda tizimli, faoliyatga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy va integrativ yondashuvlar asosiy metodologik tayanch sifatida tanlangan. Tizimli yondashuv orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish butun o'quv jarayonining uzviy qismi sifatida tahlil qilinadi. Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv talabani o'quv faoliyatining markaziga qo'yadi, ya'ni talaba bilimni tayyor holatda emas, balki mustaqil izla-



nish orqali o'zlashtiradi. Kompetensiyaviy yondashuv tanqidiy fikrlashni talabani kasbiy tayyorgarligini belgilovchi asosiy kompetensiyalardan biri sifatida qaraydi. Integrativ yondashuv esa bilimlarni fanlararo bog'liqlikda o'rganish orqali tanqidiy tafakkurni chuqurlashtirishni ko'zda tutadi. Tadqiqotning nazariy asosini John Dewey, Paul va Elder, Vygotskiy, Bruner kabi olimlarning tanqidiy fikrlash, refleksiv tafakkur va integrativ ta'lim haqidagi g'oyalari tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sohasini takomillashtirishga oid farmon va qarorlari ham metodologik asos sifatida olinadi.

Tadqiqotda qo'llanilgan asosiy metodlar: ilmiy-nazariy tahlil, taqqoslash, tizimlashtirish, kuzatish, suhbat, so'rovnoma, tajriba-sinov ishlari va natijalarni statistik tahlil qilishdir.

Tadqiqot bosqichma-bosqich amalga oshiriladi: birinchi bosqichda mavzuga oid adabiyotlar tahlil qilinadi, ikkinchi bosqichda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda integrativ yondashuvga asoslangan metodik tizim ishlab chiqiladi, uchinchi bosqichda esa tajriba-sinov ishlari o'tkazilib, ularning samaradorligi aniqlanadi.

Natijalar tahlili asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Shu tarzda tadqiqot metodologiyasi nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlab, oliy ta'limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning metodik asoslarini mustahkamlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Oliy ta'lim tizimida olib borilgan kuzatuv va tajriba-sinov ishlari tahlili shuni ko'rsatdiki, integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan o'quv jarayonida talabalar faolligi, mustaqil fikrlashi va tahliliy yondashuvi ancha kuchayadi. Dastlabki bosqichda o'tkazilgan so'rovnomalarda va suhbatlar natijasida aksariyat talabalar tanqidiy fikrlash tushunchasining mazmunini to'liq anglab yetmaganini, fikrini dalillar bilan asoslashda qiynalishini bildirgan. An'anaviy o'qitish jarayonida talaba ko'proq tayyor bilimni eslab qolishga yo'naltirilgani uchun mustaqil fikrlash, muammoni hal etish va o'z pozitsiyasini himoya qilish ko'nikmalari yetarli darajada rivojlanmaganligi aniqlangan. Tajriba bosqichida integrativ yondashuv asosida tuzilgan mashg'ulotlar tizimi joriy etildi. Darslar davomida turli fanlar bilan bog'langan topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, case-study, debat va fishbone kabi interfaol metodlar qo'llanildi. Bu jarayonda talabalar muammoni tahlil qilish, sabab-oqibatlarini aniqlash, dalillarni solishtirish va xulosa chiqarish faoliyatiga jalb etildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari tahlillarga asoslanib, talabalar o'rtasida mustaqil fikr bildiruvchi, dalillash orqali o'z nuqtai nazarini himoya qila oladigan shaxslar soni ortgan. Shuningdek, integrativ yondashuv asosida o'qitilgan guruh talabalari o'z bilimni boshqa fanlar bilan bog'lay olishi, masalaga kengroq qaray olishi bilan farq qilgan. O'tkazilgan test va so'rovnomalarda natijasiga ko'ra, eksperimental guruh talabalarining tanqidiy fikrlash darajasi nazorat guruhiga nisbatan yuqoriligi aniqlangan. Bu esa integrativ yondashuv asosidagi o'qitish tanqidiy fikrlash kompetentligini rivojlantirishda samarali ekanini isbotlaydi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, talabalarga mustaqil tahlil qilish, o'z fikrini bildirish va bahsda qatnashish imkoniyati berilganda, ularning o'qishga bo'lgan motivatsiyasi ham ortadi. Shu bilan birga, o'qituvchining roli axborot beruvchidan yo'naltiruvchi va tahlilni boshqaruvchi sifatida o'zgaradi. Natijalar shuni tasdiqlaydiki, integrativ yondashuv asosida o'qitish tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qulay pedagogik muhit yaratadi, talabalarda tahliliy tafakkur, refleksiya, mantiqiy fikrlash va ijodiy qaror qabul qilish kompetensiyalarini shakllantiradi. Umuman olganda, tahlil natijalari asosida aytish mumkinki, integrativ yondashuvni ta'lim jarayoniga tizimli ravishda joriy etish oliy ta'lim talabalarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning eng samarali metodik yo'nalishlaridan biridir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oliy ta'limda integrativ yondashuv asosida tanqidiy fikrlash kompetentligini rivojlantirish bugungi kunda ta'lim sifatini oshirishning eng samarali yo'nalishlaridan biridir. Bu jarayon:

- o'qitish mazmunini boyitadi,
- fanlararo bog'liqlikni kuchaytiradi,
- talabalarda mustaqil, tahliliy va ijodiy fikrlashni shakllantiradi.

Integrativ yondashuvni ta'lim jarayoniga joriy etish orqali har bir talaba o'z fikrini asoslay oladigan, dalillay oladigan va muammoni turli jihatdan ko'ra oladigan tanqidiy fikrlovchi shaxs sifatida shakllanadi. O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oliy ta'limda integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan o'qitish jarayoni talabalarining tanqidiy fikrlash kompetentligini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Integrativ yondashuv orqali fanlararo bog'liqlik ta'minlanadi, bilimlar tizimli ravishda o'zaro uyg'unlashadi va bu talabani fikrlash jarayonida kengroq, mantiqan asoslangan yondashuvni shakllantirishga undaydi.



Tajriba natijalari shuni tasdiqlaydiki, integrativ yondashuv asosida o'qitilgan talabalar muammoni tahlil qilish, sabab va oqibatlarni aniqlash, dalillarga tayanib xulosa chiqarish hamda o'z fikrini asoslab berish qobiliyatiga ega bo'ladi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish jarayonida interfaol metodlar – "Aqliy hujum", "Debat", "Fishbone", "Case-study", "Insert" kabi usullardan foydalanish samarali natija beradi. Bunday yondashuvlar o'quvchini faol subyektga aylantiradi, ularni mustaqil qaror qabul qilishga va o'z fikrini dalillar bilan himoya qilishga o'rgatadi.

Shu asosda xulosa qilish mumkinki, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun o'qitish jarayonida integratsiyani ta'minlash, fanlararo bog'liqlikni kuchaytirish va talabaning fikrlash faoliyatini rag'batlantiruvchi pedagogik muhit yaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-6108-son farmoni.
2. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi", 2019-10-08, PF-5847.
3. Зокирова Д.Н. Интегратив yondashuv asosida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy-innovatsion faoliyatga tayyorlashning metodik modeli // Ta'lim, fan va innovatsiya. Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal. – №2, 2023-yil.
4. Азизходжаева Н.Н. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. – Т.: Молия, 2003. – 192 б.
5. Толипов Ў.Қ., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари. – Т.: Фан, 2006. – 76 б.
6. Химматалиев Д.О. Бўлажак ўқитувчиларда касбий компетентликни ривожлантириш механизми // Современное образование (Узбекистан). – 2020. – №7 (92).
7. Dewey, J. How We Think. – Boston: D.C. Heath & Co., 1933.
8. Paul, R., Elder, L. Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life. – Pearson, 2019.
9. Qodirova, N. Integrativ yondashuv asosida o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi // Pedagogik va psixologik tadqiqotlar jurnali. – 2023. – №1(5). – B. 145–150. <https://imfaktor.com/index.php/jopaps>
10. Karimov, U. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda zamonaviy metodlar // Ta'lim va innovatsiyalar jurnali. – 2022.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.